

О‘ЗБЕК VA TOJIK XALQLARINING DO‘STLIK MUNOSABATLARI

Xoliqulov Sanjar

*Termiz davlat universiteti Rus va qartosh tillar fakulteti
Tojik va sharq tillar kafedrası 2 bosqich talabasi*

*O‘zbek bilan tojik ikki tilda gaplashadigan bitta xalqdir
O‘zbekiston respublikasi birinchi prezidenti
I.Karimov*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uzoq va qahraton o‘tmishlari davomida bir tanu bir jon bo‘lib kelayotgan, O‘zbek va tojik xalqining do‘stlik munosabatlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Do‘stlik, Munosabatlar, urf-odatlar, ikki xalq, adabiy yaqinliglar.

O‘zbek- tojik xalqlarini do‘stligining poydevori asrlar qa’riga borib taqaladi. Bu munosabatlar o‘z davrining mashhur Ikki buyuk arbobi — Jomiy bilan Navoiyning do‘stligi va hamkorligi tojik hamda o‘zbek adabiy va madaniy aloqalari tarixidagi yorqin sahifadir. Jomiy va Navoiy boshlab bergan zullisonaynlik an’analarini Mashrab, Turdi, Nodira, Furqat, Zavqiy, Anbar otin, Asiriy, Ayniy, Hamza va boshqalar davom ettirdilar. O‘zbek va tojik xalqlari – bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog‘i desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu ikki xalqning do‘stligi azaldan hamisha samimiy, xolisona tomir otgan. Turmush tarzining qariyb bir xilligi, an’analar va urf-odatlarining yaqinligi ko‘p asrlik tarix, jumladan, adabiyot va san’at, o‘zbek- tojik xalqlarining taqdiri va boshqa sohalarda ham ularning o‘zaro do‘srona munosabatlarini bir-biri bilan qadimdan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatib beradi. Bir so‘z bilan aytish mumkinki bu ikki xalq et bilan tirnoq kabi bo‘lib ketgan.

Tojikiston xalqining suyukli zullisonayn shoiri O‘lmas Jamol o‘zbek-tojik xalqlarining yaqin qardoshligi, do‘st-birodarligi va adabiy yaqinligining juda ham qadim-qadimdan boshlanganini shunday misralar bilan ifodalaydi.

؛ÇÁÁÃÓ ÒÌÆÈÈ ÝÈÈÌ
(ØÈÐÓ ØÀÈÀÐ)
؛ÇÁÁÃÓ ÒÌÆÈÈ ÝÈÈÌ ÒÌÆÈ ÑÀÐÈ ÝÈÄÈÄÀÐÀÍÄ,
ÁÓ ÀÇÈÇ ÒÀÐÇÁÍÄÈ ÝÈ ÍÓÈÈÓ ÍÄÄÀÐ ΧΑÌ ÎÄÄÐÀÍÄ.
ÓÈ ÁÈÐÈ ÌÈÒÈÍ ÒÇÓÈÄÈÐ, ΧΑÌ ÆÄÄÌΧÈÐ ÈÇ ÁÈÐÈ,
ÁÈÍÄÀÐÈ, ÌÄÈÄÄÍÄÈ ÝÈ ÍÄÓ ÆÈÈÓ ÝÈ ÄÄÄΧÀÐÀÍÄ.
ΧÀÇÐÀÒÈ ÆÌÈÈÈ, ÍÄÄÌÈÈ □ ÌÄΧÐÈÍÈÍÄ ÑÀÐ÷ÀØÌÄÑÈ,

ÄÄÐ ÑÓÓÄÍÄÇÈÈ ÒÄÄÌÍÍÝÍÄÓ ÁÄÑ ÀÒÑÓÍÄÄÐÄÍÄ.
ÍÄ ÄÄÈÌÈÄÐ ÁÍØÈÄÄÍ ÄÍÄÐÓÇ ÑÌÈÈÄ ÇÒÄÄÍÄÄ ΧΑÌ
ÄÇÑÒÈÐÍ ΧΑÌ÷Ó ÄÄÍÈÈ ÄÄÄÄΧÍ ÌÄÍÄÐÄÄÐÄÍÄ.
ÝÚÒÈΚÍÄ, ÌÄΧÐÓ ÄÄÒÍ ÄÍÄÈÄÄ ÆÍÝÒ ÄÄÍÄÇÈÐ,
ÄÄÐ ÑÄÍÈÈ ÌÄÚÐÈÒÄÒ ΧÄÐ ÄÓ ÄÓÐÄØØÍ ÄÓÒÄÐÄÍÄ.
ÌΚÈÄÄÒ ÄÄÈÐÍÈÍÈ, ÄÇÑÒÈÈ, ΚÇÈÈÍÄÄÄÍ ÄÄÐÌÄÄÈÈ,

EÍ ÈÈÂÎÐÎ ÒÎ ÆÀΧÎÍ ÁÎΚÈÑÒ, ÁÎ ΧÀÌ ÌÀÁÀÐÀÍÄ

O'zbek - tojik xalqlari uzoq o'tmishlaridayoq o'zlarining yuksak darajadagi yuqori adabiyotini yuzaga keltirgan edilar. Bu xalqlarning og'zaki ijodidagi mushtariklik ham eng avvalo uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tojiklarda ham, o'zbeklarda ham Mullo Nasriddin dek dono, hozirjavob kulduruvchining, Go'ro'g'lidek sarkardaning, Tohir va Zuhra, Farxod va Shirin singari haqiqiy ishq fidoyilarining mashhurligida ko'rinadi. Xalq ertak va qo'shiqlarining teran mazmun va mundarijasida, o'ynoqiligi va ravonligida, syujet va mavzularining mushtarakligida ko'zga tashlanadi. Shuningdek o'zbek xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutgan "Go'ro'g'li" shaklidagi dostonlar tojik xalqining orasida ham keng tarqalgan. Adabiyotshunos olim Yusuf Xos Xojib Bolasog'unining qayd etishicha "Qutatg'u bilig" asari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asari vaznida, ya'ni aruzning mutakorib bahrida yozilgan. Bu misol turkiy tilli va forsiy zabon xalqlari o'rtasida X-XV asrlardayoq adabiy aloqalar mavjudligidan dalolat beradi.

Xullas, yeri bir-biriga tutash, bir daryodan ichgan, bir-biriga quda tutungan, molu joni o'rtada bo'lgan, qondosh va jondoshga aylanib ketgan o'zbeku tojiklar do'stligi, adabiy hamkorligi, hamjihatligi ajoyib an'analarga o'z aksini topgan. Shu bois milliy nizo va yurttalashlik ular uchun begona hislatdir.

Mamlakatimiz uzra esayotgan qayta qurish, hayotimizni har qanday g'uborlardan poklash, oshkorlik shamoli xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni, adabiy-madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashda shubhasiz yangi bosqichni boshlab beradi. Tabiatan hamisha baynalmilal xalqlar bo'lgan, bu ikki qardosh xalq o'rtasidagi buzilmas do'stlik quyoshi so'nmasdir. U asrlar osha nur sochaveradi, o'zining hayotbaxsh harorati bilan dillarimizni isitaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'ZBEK-TOJIK ADABIYOTI: O'zaro aloqalar o'zaro ta'sir. "O'zbekiston" nashri. Toshkent 1990.
2. B.QOSIMOV. O'ZBEK VA FORS TOJIK ADABIY ALOQALAR TARIXI. Toshkent 2009
3. G.XALLIYEVA. QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK. "Akademnashr" nashri. Toshkent 2020.
4. S.KAMBAROVA. MUSTAQIL MUTOLAA VA ADABIY TAHLIL. 45-53 bet
5. Arxiv.uz, Wikipedia.uz